MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING DOLZARB MASALALARI

K.M.Xidirova
Guliston davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi’’
kafedrasi magistranti
e-mail : shahzodxidirov4222@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi va pedagoglarning innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali faoliyat olib borish jarayonlarining samaradorligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiya, o‘yin, zamonaviy pedagog, interfaol metodlar, shaxs, globallashuv, raqamlashtirish.

Abstract. This article talks about the relevance of introducing digital and innovative technologies in the preschool education system and the effectiveness of pedagogues’ activities through innovative pedagogical technologies.

Keywords : innovative technology , game , moder pedagogue , interactive methods , personality , globalization , digitalization.

Dunyo kundan - kunga rivojlanib, yangidan yangi innovatsion texnologiyalar yaratilmoqda. Hayotimizning har bir soniyasida dunyoning qaysidir burchagida yangi bir texnologiya yaratilmoqda.Texnologiyalar insonlarning og‘irini yengil, mashaqqatini oson qilish va eng qimmatli bo‘lgan vaqtlarini tejash uchun yaratiladi. Bugun hayotimizning har bir jabhasida bu texnologiyalarga duch kelamiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Masalan , har birimizning uyimizda televizor, kir yuvish mashinasi, elektr choynaklar , kompyuterlar , planshetlar va shunga o‘xshash ko‘plab texnologiyalar uchraydi. Barcha sohada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham raqamli va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Elektron darsliklar, elektron kitoblar , majmualar shular jumlasidandir. Bugungi kunga kelib barcha soha raqamlashtirilmoqda. Raqamlashtirish –bu axborotni elektron holga keltirish.Boisi elekton darsliklardan foydalanishning afzalliklari bisyor. Ma’lumot topish tez va oson, vaqt va mablag‘ tomondan ham yengilliklar yaratadi.

Raqamli va innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta’lim tizimini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Maktabgacha yosh –bu bola dunyoni faol anglaydigan davr. Bu yoshda bola hamma narsaga qiziqadi, bajarib ko‘rmoqchi bo‘ladi. Olimlarning aniqlashicha, maktabgacha yoshda bola hayoti davomidagi ma’lumotlarni , bilimlarni yarmidan ko‘pini o‘rganar ekan. Shu boisdan bu davrda bolaga to‘g‘ri va sifatli ta’lim tarbiya berishga jiddiy e’tibor qaratish lozim.Bola hech qachon o‘ziga qiziq bo‘lmagan ishni bajarmaydi.Qachonki bola qaysidir ishga qiziqsa, so‘ng bu ishni bajarishga harakat qiladi. Bu davrda yapon iqtiboslarida aytilganidek, bolaga podshohdek

muomala qilish kerak. Chunki bu davr bolaning psixologiyasi va ongi uchun muhim voqealarga boy bo‘ladi. Shuning uchun bu davrda bolaning har bir qiziqishini e’tiborga olib, uni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish lozim. Xususan, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan, “ Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi’’ .

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu bo‘g‘inda bola har tomonlama sog‘lom va yetuk shaxs sifatida shakllantiriladi, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi paydo bo‘ladi va rivojlanadi, tizimli o‘qishga tayyorlab boriladi.Maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadi ham bolani sog‘lom va yetuk shaxs sifatida tarbiyalash va o‘qishga tizimli tayyorlashdir. Uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bo‘g‘inida raqamli va innovatsion texnologiyalardan keng ko‘lamda foydalanish juda muhim va davr talabidir. Uy qurayotganimizda eng muhim narsa poydevor bo‘lganidek , ta’lim tizimiga bu texnologiyalarni joriy etishda maktabgacha ta’lim tizimidan boshlash muhim sanaladi. Chunki bolalar katta yoshdagi insonlarga qaraganda texnologiyalardan foydalanishni tez va oson o‘rganadi.Shu bilan birgalikda mashg‘ulot davomida oddiy tushuntirish usulidan foydalanishdan ko‘ra elektron texnologiyalar yordamida o‘rgatish ko‘proq samara beradi, bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Masalan, mashg‘ulot davomida tarbiyachi bolalarga slaydlar orqali ma’lumot bersa ularda qiziqish uyg‘onadi, ovoz effektlarini ham qo‘shsa yanada foydali bo‘ladi. Avvalo maktabgacha ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni joriy etishda tarbiyachi va pedagoglar bu texnologiyalardan keng ko‘lamda foydalanishni bilishlari talab etiladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalana olish uchun tarbiyachi-pedagog quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim:

-AKT bo‘yicha bilim,ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi;

-yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo‘lishi;

-ta’lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar yoshiga mos keladigan didaktik o‘yinlar,interfaol usullarni tanlay olish qobilyati;

-ilg‘or pedagogik yangilanayotgan g‘oyalar bilan tanishib borish;

-bilimlarning ko‘nikma va malakaga aylantirish asosida o‘z kasbiy pozitsiyasini shakllantirib borish;

-ta’limiy faoliyatlarda harakatli o‘yinlardan foydalana olish;

-turli yo‘nalishdagi bilimlarni integratsiyalashgan holda amaliyotda o‘rgatishga erishish;

Maktabgacha ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda uchraydigan yana bir muammolardan biri bu maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yetarli darajada innovatsion texnologiyalar bilan jihozlanmaganligidir. Bunga qo‘shimcha sifatida shuni ham aytib o‘tish kerakki, bolalar uchun bolalar uchun elektron mashg‘ulot va darslar ishlab chiqarilishi, mavjudlari bilan tashkilotlar ta’minlanishi kerak. Xususan, bizning tariximizni, madaniyatimizni eslatadigan, tarixiy qahramonlarimiz obrazida videoo‘yinlar ishlab chiqilishi joiz. Bu sohaga davlatimiz tomonidan katta e’tibor berilmoqda, ularga mablag‘lar ajratilmoqda. Biz xohlaymizmi yo‘qmi farzandlarimiz videoo‘yinlarga qiziqish bildiradi. Ular vahshiylikni targ‘ib etadigan yoki keraksiz bo‘lgan o‘yinlarni o‘ynamasliklari uchun biz ularga tariximizni, tarixiy qahramonlarimizni va shu bilan birgalikda ularga bilim beradigan o‘yinlarni taqdim etishimiz zarur. Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida yana bir g‘oyani ilgari surmoqchimanki, ya’ni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter savodxonligi mashg‘ulotlari o‘rgatilishini dasturga kiritish zarur deb hisoblayman. Zamon kundan kunga rivojlanib borayotgan bir davrda biz farzandlarimizga sifatli va kelajak uchun kerakli bo‘lgan bilimlarni o‘z vaqtida berishimiz muhim sanaladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi 30. 09. 2020. y

2. “ Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida’’ gi Qonun 2019 y.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari 2018 y.

4. N. N. Azizxo‘jayeva “ Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat’’ O‘quv qo‘llanma. Toshkent - 2006.

5. B. Ziyomuhammadov, M. Tojiev “ Pedagogik texnologiyalar - Zamonaviy o‘zbek milliy modeli’’ Toshkent - 2009.